B. Mirzaevning ta'kidlashicha, "suv iste'moli va hisob-kitobi hozirgi kunda murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, suv xo'jaligini raqamlashtirish, nasos stansiyalarini onlayn nazorat qilish hamda 'aqlli' suv qurilmalarini amaliyotga keng joriy etish zarur" [4].

Aynan shu maqsadda 2025-yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fransiyaga rasmiy tashrifi davomida O'zbekiston va Fransiya o'rtasida Surxondaryo viloyatida suvdan foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi. Ushbu hamkorlik loyihalari qishloq xo'jaligida, ichimlik suv ta'minotida va ishlatilgan suvni tozalab qayta foydalanishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ko'zda tutadi. Kelishuvning asosiy yo'nalishi – suv resurslarini samarali boshqarish va ularni raqamlashtirishga qaratilgan.

Jahon Bankining suv muammolariga oid loyihalari doirasidagi ekspert xulosalariga ko'ra, bugungi kunda suv masalasi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan hal qiluvchi omilga aylangan [5]. Ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyotining "yashil iqtisodiyot"ga transformatsiya qilinishi, eng avvalo, suv tejamkor texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keng joriy etish, foydalanilgan suvni tozalab qayta ishlatish, suv resurslaridan gidroenergetik salohiyatda foydalanish hamda tejalgan suvdan ekologik vaziyatni yaxshilashda foydalanishni taqozo etmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ekspert baholash, dala tadqiqotlari, statistik tahlil, qiyosiy yondashuv va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqotda O'zbekistonda suvdan foydalanishning amaldagi holati iqtisodiyotni "yashil" iqtisodiyotga o'tkazish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda tahlil etilgan. Tahlil davomida iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini baholash uchun xususiy va sintetik ko'rsatkichlardan foydalanilgan.

Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO), xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari, shuningdek, ekologik va investitsiyaviy loyihalarga oid rasmiy ma'lumotlar xizmat qilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Quyi Amudaryo hududida suv tanqisligi va global isish omillari qishloq xo'jaligi faoliyatini iqtisodiy jihatdan tobora murakkablashtirib bormoqda. Yoz oylarida ilgari kuzatilmagan darajadagi haroratning ko'tarilishi suvga bo'lgan talabning keskin ortishiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda tobora kuchayib borayotgan shamollar ta'sirida havoga ko'tarilayotgan qum va tuzlar qishloq xo'jaligida sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanishiga hamda hosildorlikning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Natijada qishloq xo'jaligining umumiy samaradorligi, xususan xarajatlarning ortishi va mehnat sarfining ko'payishi kabi muammolar yuzaga chiqmoqda. Sho'rlangan yerlarni yuvish uchun suv tanqisligi mavjud bo'lgan tumanlarda yana qo'shimcha suvga ehtiyoj sezilmoqda. Shu bilan birga, "yashil" hududlar tashkil etish zarurati ham kuchaymoqda.

Suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida xalqaro tajribalardan keng foydalanish lozim. Bu borada xalqaro moliyaviy institutlar, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkilotlari, ekologik agentliklar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bunday hamkorliklar doirasida samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish uchun, avvalo, suv resurslarining huquqiy va iqtisodiy me'yorlarini takomillashtirish, xalqaro ekspertlarni jalb etish, boshqaruvni raqamlashtirish metodologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish talab etilmoqda.

Jumladan, O'zbekistonda 2021–2024-yillar davomida suv resurslarini boshqarish sohasida raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Xususan, 12 988 ta suv inshootlariga zamonaviy qurilmalar o'rnatildi, 1 739 ta yangi nasos qurilmalari ishga tushirildi va yirik suv inshootlari avtomatlashtirildi. Natijada suv resurslarini raqamli boshqarish darajasi 20 foizga yetdi [6].

O'zbekistonning suvdan nisbatan samarasiz foydalanayotgan hududlardan biri ekani xalqaro iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ham e'tirof etilgan [5]. Hozirda mamlakat bo'yicha suvdan foydalanish koeffitsiyenti 67 foizni tashkil etmoqda. Bir birlik mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan suv miqdori ilg'or mamlakatlardagi ko'rsatkichlarga nisbatan 3–4 barobar yuqori. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatida suvning tannarxi bo'yicha ham sezilarli tafovutlar mavjud. "Fermerlarga bir metr kub suv O'zbekistonda 212 so'mga yetkazib berilmoqda, biroq Buxoro, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu narx 2–3 barobar yuqori" [2].

Xususan, Namangan viloyatida sug'oriladigan maydonlarning 70 foizida nasosli sug'orish usuli qo'llaniladi. Viloyatda 2024-yilda 1 metr kub suvning sug'orishdagi narxi 301 so'mni tashkil etdi.

So‘nggi yillarda suvdan samarali foydalanish maqsadida davlat va xususiy sektor sherikchiligi asosida nasos va irrigatsiya tarmoqlarini boshqaruvga xususiy sektorga sinov tariqasida topshirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Xususan, “Indorama Agro” MChJga Qashqadaryo viloyatining Kasbi va Nishon tumanlari hamda Sirdaryo viloyatining Sardoba va Oqoltin tumanlarida 9 ta nasos stansiyasi, 90 kilometr irrigatsiya va 2 250 kilometr melioratsiya tarmoqlari boshqaruv huquqi asosida ajratildi. Xususiy sherik tomonidan 3 milliard so‘m miqdorida investitsiya kiritildi va mazkur obyektlar muvaffaqiyatli ekspluatatsiya qilinmoqda. Natijada suvdan foydalanish samaradorligi ortib, davlat budjeti mablag‘lari tejalmoqda [7].

Namangan viloyatida OPEK dasturi doirasida 54 million dollarlik investitsiya evaziga Namangan shahri, Yangiqo‘rg‘on va Kosonsoy tumanlarida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi amalga oshirilmoqda. Suvdan tejamkor foydalanishga qaratilgan investitsiya loyihalari hozirda mamlakatning barcha viloyatlarida keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda suvdan tejamkorlik asosida foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar faollik bilan olib borilayotgan bir paytda, Amudaryoning yuqori oqimida Afg‘oniston tarixidagi eng yirik mega loyiha – “Qo‘shtepa” kanalini qurishni boshlab yubordi.

“Qo‘shtepa” kanali loyihasi ilk bor 1970-yillarda Sovet Ittifoqi ishtirokida qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda Afg‘oniston tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilmoqda. Kanal boshlanishi Surxondaryo, Vaxsh, Panj va Qo‘ddus daryolari suvlarining quyilish hududiga to‘g‘ri keladi (1-rasm). U Amudaryoning yuqori va kuchli oqimli qismidan boshlanadi va suv tabiiy oqim asosida Afg‘onistonning shimoliy hududlariga qarab oqadi.

Loyihaga ko‘ra, “Qo‘shtepa” kanalining umumiy uzunligi 287 km, chuqurligi 8,5 metr, o‘rtacha eni 100 metr bo‘lib, 1,2 million gektardan ortiq qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish nazarda tutilgan. Kanalning to‘liq qurib foydalanishga topshirilishi natijasida 200 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Qurilish muddati olti yilni qamrab oladi (1-rasm) [8].




1-rasm. Qo‘shtepa kanalining boshlanishi[8]

Biroq kanalning ikkilamchi va uchinchi tizimlari, ya’ni suvni tarqatuvchi inshootlar hamda boshqaruv tizimlarini to‘liq ishga tushirish yana bir necha yillarni talab qiladi. Kanal suvlari asosan Afg‘onistonning qishloq xo‘jaligida foydalanilishi nazarda tutilganini inobatga olgan holda, loyiha ikkinchi va uchinchi bosqichlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xususan, O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi suvdan foydalanish tajribasi Afg‘onistonning qishloq xo‘jaligida amaliy foyda berishi mumkin. Afg‘oniston va O‘zbekiston o‘rtasida ko‘ptomonlama hamkorlikning tobora kengayib borayotgani ijobiy tendensiya bo‘lib, ayniqsa suvdan birgalikda foydalanish masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, suvga chidamli va yuqori daromadli ekinlarni joylashtirish, ichki gidrotexnik inshootlarni barpo etish kabi yo‘nalishlarda Afg‘onistonning O‘zbekiston bilan manfaatli hamkorligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi va bu yo‘nalishda katta salohiyat mavjud.

Ayniqsa, O‘zbekistonning Turkmaniston va Afg‘oniston bilan hamkorlik doirasini kengaytirishi suvdan birgalikda foydalanish bo‘yicha huquqiy asoslarni shakllantirishga zamin yaratadi (2-rasm).




2-rasm. Amudaryo suv oqimlari va kanallari [8]

Hozirda daryoning quyi qismida joylashgan mamlakatlar bilan suvdan foydalanish bo‘yicha kelishuvlar, jumladan, Afg‘onistonning Suv konvensiyasiga qo‘shilishi, mazkur loyihaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda (2-rasm). Shu bilan birga, kanalning qurilishi Quyi Amudaryo hududlaridagi qishloq xo‘jaligi va aholi uchun jiddiy xavotir uyg‘otmoqda.

Orolbo‘yi hududlarida saksovul ekilgan maydonlarning kengayishi natijasida ekotizim tiklanmoqda, hayvonot dunyosi ham asta-sekin jonlanmoqda. Biroq hayvonlar uchun yetarli oziqa bazasining mavjud emasligi ularning ko‘payishini cheklab qo‘ymoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida ushbu hududlarda topinambur ekinini yetishtirish maydonlarini barpo etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Topinamburning Quyi Amudaryo hududlaridagi sho‘rlangan yer va suv sharoitida o‘sishi bo‘yicha sinovlar o‘tkazilgan va ijobiy natijalar olingan [8]. Topinambur tuproqdagi sho‘r miqdorini kamaytiradi va hayvonot dunyosi uchun oziqa manbai vazifasini bajaradi.

Tajribalar asosida Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq tumani hamda Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida sho‘rlangan yer va suv sharoitida topinamburning ko‘k massasi hamda tuganagi muvaffaqiyatli yetishtirildi. Demak, topinamburning sho‘r yer va suv sharoitida o‘sishi Orol dengizi tubida ekilgan saksovullar bilan birga amalga oshirilsa, ushbu hududda hayvonot dunyosining kengayishi uchun tabiiy shart-sharoit yaratiladi [9].

Loyihada olingan muhim natijalardan biri shuki, patak ildizli topinambur sho‘rlangan yer va suv sharoitida boshqa ekinlarga nisbatan samaraliroq o‘sadi. Uning ildizi tuz ko‘chishini sekinlashtiradi, tuganagi esa hayvonot olamiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri oziqa bazasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu loyiha doirasida topinambur tuganagidan “Qo‘qon spirt” korxonasida sanoat sinovi asosida bioetanol ishlab chiqarildi [9]. Olingan bioetanol

Toshkent transport universitetida avtomobil yoqilg'isi sifatida sinovdan o'tkazildi. Natijalar qoniqarli deb topildi: bioetanolning foydalanilishi natijasida benzinga nisbatan zararli chiqindilar miqdori uch barobargacha kamaygani aniqlandi [9].

Loyiha hamkorlari ham dala tadqiqotlari asosida ijobiy natijalar olishdi. Mo'ynoq tumanining Kazaxdaryo tumanida gektariga 65-75 tonna ko'k biomassa yoki 48 tonna tuganaklar hosili olindi.

1-Jadval. Topinamburning Fayz Baraka navidan Qoraqalpog'istonning sho'rlangan maydonlaridan olingan xosil [10].

| | Sho'rlanish turi | O'simlik balandligi (sm) | Zichligi / m2 | Er usti biomas-sa hosildorligi (t/ga) | Quruq massa hosildorligi (t/ga) | Tuganaklar soni/ o'simlikda | Tuganaklar hosili (t/ga) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Kazaxdaryo | xlorid-sulfat | 290-317,4 | 16-18 | 65,81-75,60 | 27,93-30,24 | 118,2-153,2 | 48,23 |
| Kizilkesek | sulfat-xlorid | 265,1-304,4 | 20-25 | 55,7-73,90 | 22,0-29,8 | 89, 5-112,8 | 46,12 |

Albatta, topinambur yetishtirish mumkin bo'lgan yerlarni aniq tanlab, tajriba-sinov ishlarini izchil davom ettirish zarur. Chunki "Qo'shtepa" kanalining ishga tushirilishi kelgusida ushbu hududda suv tanqisligini yanada kuchaytirishi va cho'llanish jarayonlarini tezlashtirishi kutilmoqda.

Xaritada "Qo'shtepa" kanalining boshlang'ich nuqtasi ko'rsatilgan. Kanalning boshlanish nuqtasi Amudaryoning sersuv va tez oqimli qismida joylashgan bo'lib, Afg'oniston uchun katta hajmdagi suv olish imkoniyatini beradi. Afg'oniston esa hozirda Amudaryo suvidan foydalanish bo'yicha hech qanday xalqaro-huquqiy majburiyatga ega emas.

Sovet davrida qurilgan yirik kanallar, xususan Qoraqum kanali, hamda hozirda qurilishi davom etayotgan "Qo'shtepa" kanali 2-rasmda ko'rsatilgan. Xaritada, shuningdek, Orol dengizining uchta obyekti – Mavsumiy ko'l, Janubiy Orol va Shimoliy Orol ko'llari ham aks etgan.

"Qo'shtepa" kanali Afg'onistonning uchta shimoliy viloyati – Balx, Jauzjon va Faryob viloyatlarini suv bilan ta'minlashni maqsad qilgan. Loyihaga ko'ra, kanal ilgari sug'orilmagan 1,2 million gektar yerlarni o'zlashtirish va ushbu yerlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga xizmat qiladi (3-rasm) [8].




3-rasm. "Qo'shtepa" kanalidan Amudaryo suvlarini olib o'tadigan uchta shimoliy viloyatlar[8]

2023-yilda Amudaryo suvining oylar kesimida 71–80 foizi O'zbekiston va Turkmaniston tomonidan olingan, qolgan qismini esa Tojikiston egallagan edi [11]. Shundan 9 oy davomida Turkmaniston Amudaryo suvining eng katta ulushini iste'mol qilgan. O'zbekiston esa suvni kanallar orqali qabul qilishda Turkmaniston bilan uzoq muddatli va suv tanqisligidan kelib chiqadigan xavflarni inobatga olgan holda strategik kelishuvlarga muhtoj.

"Qo'shtepa" kanali loyihasi Afg'onistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda aholining kambag'allikdan chiqishiga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Biroq Amudaryoning quyi oqimida joylashgan O'zbekiston va Turkmaniston uchun ushbu loyiha bilan bog'liq xavotirlar va suv tanqisligi xatarlariga to'liq yechim ishlab chiqilmagan. Bu esa O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri sifatida ko'rilmoqda.

Suv tanqisligi natijasida cho'llanish, yerlarning sho'rlanishi, aholining majburiy migratsiyasi, havoning changlanishi, tuzlarning boshqa hududlarga ko'chishi, ekologik muhitning beqarorligi va aholi salomatligiga salbiy ta'sir kabi tizimli muammolar kelib chiqishi mumkin. Bunday sharoitda O'zbekiston va Turkmanistonda oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanishi ham xavf ostida qoladi. Shu sababli Amudaryo havzasiga kiruvchi mamlakatlar, xalqaro miqyosda nufuzli tashkilotlar va ularning ekspertlari bilan hamkorlikda suvdan foydalanish, "yashil" iqtisodiyotni joriy qilish va barqaror iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish zarur bo'lib qolmoqda.

Hozirgi davrda yuqorida qayd etilgan muammolarning oldini olish imkoniyati mavjud. Bunday muammolarni birgalikda hal etish Markaziy Osiyo mamlakatlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishining ajralmas shartidir. Eng muhim jihati shundaki, suv tanqisligining kuchayishi Quyi Amudaryoda yashovchi 10 milliondan ortiq aholi turmush darajasi va daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Cho'llanish jarayoni jadallashadi, natijada aholining majburiy migratsiyasi kuchayadi.

Masalan, agar bir gektar yerda o'rtacha 40 million so'mlik daromad olinadigan bo'lsa va suv tanqisligi sababli 100 gektar qishloq xo'jaligi yeri foydalanishdan chiqsa, mamlakat 4 milliard so'mlik iqtisodiy yo'qotishga uchraydi. Bunday holatda kamida 10 ta oila migratsiya xavfiga duchor bo'ladi, bu esa butun oila uchun ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va mashaqqatlarga olib keladi (2-jadval).

2-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlarida Amudaryo suvini olish salmog'i [11].

| 2023-yil oylar kesimi | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| Jami mln.$m^3$ | 1195 | 2595 | 4582 | 3840 | 4620 | 5662 | 7434 | 6882 | 4752 | 2642 | 1815 | 1566 |
| O'zb (%) | 29,2 | 52,1 | 47,3 | 29,5 | 33,7 | 38,4 | 43,2 | 40,0 | 33,9 | 29,2 | 34,8 | 34,3 |
| Turk (%) | 46,9 | 37,9 | 42,4 | 45,9 | 42,2 | 41,1 | 39,5 | 41,8 | 44,5 | 44,2 | 37,9 | 38,8 |
| Tojik (%) | 23,9 | 10,0 | 10,3 | 24,6 | 24,1 | 20,5 | 17,3 | 18,2 | 21,6 | 26,6 | 27,3 | 26,9 |
| O'zb+ Turkm(%) | 76,1 | 90,0 | 89,7 | 75,4 | 75,9 | 79,5 | 82,7 | 81,8 | 78,4 | 73,4 | 72,7 | 73,1 |

Manba: muallif tomonidan http://www.icwcaral.uz/reports_amudarya_ru.htm asosida yaratildi

Kelgusida suv tanqisligi, tuproqning sho'rlanishi, cho'llanish, aholi salomatligini saqlash hamda tartibsiz migratsiyani oldini olish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslar sarflanishi ehtimoli yuqori. "Qo'shtepa" kanalini qurishda, ayniqsa, sovet davrida yo'l qo'yilgan strategik va ekologik xatolar, global miqyosdagi kamchiliklar takrorlanmasligi yoki hech bo'lmaganda ularning salbiy oqibatlari yumshatilishi lozim.

Hozirgi vaqtda Amudaryo suvi shakllanadigan daryolar va muzliklar holatining kelajak prognozi xavotirli ko'rinmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv tanqisligi 2050-yilga borib 10–30 foizgacha qisqarishi mumkin [5]. O'zbekistonda esa 2030-yilga kelib 7 milliard kub metr suv tanqisligi yuzaga kelishi prognoz qilinmoqda. Bu holat Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida manfaatlar muvozanatiga erishish zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Qishloq xo'jaligida suvga bo'lgan talab yaqin kelajakda izchil oshib boradi, bu esa mavjud suv tanqisligini yanada kuchaytiradi. Shunday sharoitda mamlakatda suv resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni "yashil" iqtisodiyotga muvaffaqiyatli transformatsiya qilish imkoniyati yuzaga chiqadi. Bu esa suv tanqisligidan kelib chiqadigan yangi iqtisodiy va ijtimoiy talablarga barqaror yechimlar topishga zamin yaratadi.

Ayni paytda bunday yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur imkoniyatlar mavjud. O‘rta muddatli istiqbolda esa suvdan oqilona foydalanishni ta’minlash uchun barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari raqamlashtirilgan, shaffof va ishonchli suv boshqaruvi tizimiga o‘tishi, hamkorlikda barqaror kelishuvlarga erishishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda 1990-yillarda 64 milliard kub metr suv ishlatilgan bo‘lsa, 2020–2024-yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich 46–51 milliard kub metrni tashkil etgan. Hozirda suvning 87–88 foizi qishloq xo‘jaligida iste’mol qilinmoqda. Suvdan foydalanish koeffitsiyenti 67 foizga teng [13]. Shunday ekan, kelgusida mamlakatning suv zahiralarini shakllantirish, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari hamda aholining suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, avvalo, qishloq xo‘jaligida iste’mol qilinayotgan suvni iqtisod qilish va uni boshqa hududlar hamda tarmoqlarga qayta taqsimlashni taqozo etadi. Aholi va sanoat ehtiyojlari suv taqsimotida ustuvor yo‘nalishlarga aylanishi kutilmoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda bir birlik yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan suv miqdori rivojlangan davlatlarnikiga nisbatan 3–4 barobar ko‘pdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bir birlik yalpi ichki mahsulotga suv sarfi bilan bir qatorda muallif tomonidan quyidagi ko‘rsatkichni qo‘llash taklif etilmoqda – bir birlik suv sarfidan yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymati (YaIM SS):

YIM SS = USS / YIM

Bu yerda:

YaIM SS – bir birlik yalpi ichki mahsulotga to‘g‘ri keluvchi suv sarfi (kub metr/AQSH dollari);

YaIM – yalpi ichki mahsulot qiymati (AQSH dollari);

USS – umumiy suv sarfi (kub metr).

2024-yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 115 milliard AQSH dollariga teng bo‘lgan, mamlakatda ishlatilgan umumiy suv hajmi esa 46 milliard kub metrni tashkil etgan.

Shunga ko‘ra, bir birlik yalpi ichki mahsulotga to‘g‘ri keluvchi suv sarfi quyidagicha aniqlanadi:

YIM SS =USS/YIM = 46 mlrd.kub. metr suv / 115 mlrd $ =0,4 kub. metr.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda bir birlik yalpi ichki mahsulotga sarflanayotgan suv hajmi pasaymoqda, biroq suvni tejashga bo‘lgan ehtiyoj yanada jadal o‘sib bormoqda.

Shuningdek, bir litr suv sarfidan yaratiladigan yalpi ichki mahsulot qiymati (SS1YaIM) quyidagicha hisoblanadi:

SS1YIM = YIM / USS =115 mlrd $/46 mlrd.kub. metr suv = 2,5$

Ushbu ko‘rsatkichlardan suvdan samarali foydalanishni ifodalovchi sintetik ko‘rsatkichlar sifatida foydalanish, “yashil” iqtisodiyot jarayonlarini tahlil qilishda keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiyotning suv tejamkor tarmoqlarga bosqichma-bosqich o‘tishini, shuningdek, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishidagi suv resurslari samaradorligini yaqqolroq ifoda etadi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish avvalo boshqaruv tizimining yangilanishi va bu tizimda raqamlashtirish jarayonlarining joriy etilishini talab qilmoqda. Jahon banki hamda rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida daryolar, kanallar va ichki suv inshootlari aniqlanib, ularning raqamli monitoringi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Kelgusida O‘zbekistonni shaharlashtirish, sanoatlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va ekologik muammolarni hal qilish ko‘p jihatdan aynan qishloq xo‘jaligida suvni tejash hisobiga amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, mamlakatning barqaror rivojlanishi qishloq xo‘jaligida ishlatilayotgan suvni iqtisod qilish, uni boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga yo‘naltirish hamda ishlatilgan suvni tozalab qayta ishlatish bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu esa suv balansida tarkibiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Shuningdek, hududlarda “yashil” belbog‘lar tashkil etilib, tuzlarning ko‘chishi oldi olinadi, yer va havo sifati yaxshilanadi, nihoyat, aholining salomatligi ijobiy tomonga o‘zgaradi.

O‘zbekistonda 2017-yildan keyin suvdan samarali foydalanish bo‘yicha yangi qarashlar va yondashuvlar ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Suv muammosi o‘z mohiyatiga ko‘ra tizimli xarakterga ega bo‘lgani bois, kelgusida bu yo‘nalishda ilmiy va amaliy tadqiqotlar turli fan sohalari olimlari va ilmiy markazlari integratsiyasi asosida olib borilishi zarur.

Xususan, Yaponiya universitetlarida fanlararo ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning yuqori samarali ishlanmalari amaliyotda o‘z tasdig‘ini topgan. Shunday markazlardan biri Toxoku universiteti (Senday shahri) bo‘lib, u dunyo universitetlari reytingida eng kuchli 100 talikka kiradi. Ushbu universitetning fanlararo tadqiqot markazi ko‘p yillar davomida suv va ekologik xavfsizlik muammolari bo‘yicha samarali ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib bormoqda. Markazga dunyoning taniqli olimlari shartnoma asosida ma’lum muddatga taklif qilinadi va ularning eng so‘nggi ishlanmalari bo‘yicha yapon olimlari bilan yaqin ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Ma’lumki, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanilayotgan ekin maydonlari yildan-yilga sezilarli darajada kengaymoqda. Tomchilatib sug‘orish tizimining rag‘batlantirish mexanizmlari esa izchil takomillashtirib borilmoqda.

2007-yilda Toshkent viloyatining Parkent tumani Zarkent qishlog‘ida BMT Taraqqiyot dasturining “Istiqbol” loyihasi doirasida muallif rahbarligida tomchilatib sug‘orish texnologiyasi uzumchilikda qo‘llanildi. Mazkur loyiha pilot loyiha bo‘lib, ilgari umuman foydalanilmagan yerlarda 5 turdagi meva va uzum yetishtirildi. Fermer xo‘jaligining mazkur tajriba loyihasi rentabelligi 20–25 foizni tashkil etdi. Keyinchalik Zarkent qishlog‘idagi barcha adir yerlarga investitsiya kiritilib, tomchilatib sug‘orish texnologiyalari keng joriy etildi [12].

O‘zbekistonda 2019–2024-yillar davomida suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llash maydoni 7,7 barobarga oshdi. Suv tanqisligi muammosining tobora dolzarb tus olayotgani sababli, 2030-yilga kelib mamlakatda 4 million gektar maydonda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan.

Zarkentdagi 2007-yilgi BMT loyihasi amalda muvaffaqiyatli bo‘lganiga qaramay, o‘sha davrda tomchilatib sug‘orish tizimi fermerlar uchun qo‘shimcha xarajat bo‘lgan. Hozirda esa davlat tomonidan fermerlarga subsidiya shaklida moliyaviy ko‘mak ko‘rsatilmoqda va bu tizim rag‘batlantirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish muammolarini hal etishda davlatning qo‘llab-quvvatlovi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada suvdan foydalanish bo‘yicha huquqiy me’yorlarni takomillashtirish, investitsiya loyihalarining jozibadorligini oshirish, soliqqa oid imtiyozlar berish, subsidiyalar ajratish hamda xalqaro ilg‘or tajribalardan keng foydalanish zarur. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil 17-mart kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi suv xo‘jaligida davlat-xususiy sherikchilik, transchegaraviy suvlar bo‘yicha xalqaro hamkorlik kabi muhim yo‘nalishlarning huquqiy asoslarini yaratdi.

Suv tejovchi investitsiya loyihalarining kutilayotgan natijalaridan kelib chiqib, ayrim loyihalarni ekologik loyiha sifatida baholash ham maqsadga muvofiqdir.

Suvdan foydalanish va boshqarish butun dunyo miqyosida dolzarb bo‘lgan global hududiy muammolardan biridir. Uni transchegaraviy va davlatlararo muammo sifatida ko‘rib chiqish muhim. Masalan, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston o‘rtasida Sirdaryo suvlaridan foydalanish bo‘yicha tuzilgan kelishuvlar natijasida Shimoliy Orol dengiziga quyilayotgan suv hajmi sezilarli darajada oshdi.

Xususan, 2024-yilda suv miqdori 2021-yilga nisbatan 2,5 barobarga ko‘paydi [11]. Shimoliy Orol sathini barqaror saqlab turish uchun yiliga kamida 1 milliard kub metr suv quyilishi zarur. Bu esa baliqchilik sohasining tiklanishiga, ayniqsa chuchuk suv baliqlari ko‘paytirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda Shimoliy Orol dengizida 22 turdagi baliq yetishtirilmoqda va Orolbo‘yi hududining flora va faunasi asta-sekin qayta tiklanmoqda.

Qozog‘istonda suv resurslarini raqamlashtirish orqali Shimoliy Orolga qo‘shimcha 400 million kub metr suv oqimini ta’minlash imkoniyati yuzaga kelgan [11]. Aksincha, Amudaryo havzasida esa xavotirli holatlar kuchaymoqda (4-rasm).



4-rasm. Orol dengizida vujudga kelgan ko‘llar [8]

Kelgusida suvdan samarali foydalanishni ta'minlash uchun ikki xil asosiy prognoz variantini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. Hozirgi holatning kelgusida saqlanib qolishi ssenariysi.

Ushbu ssenariyda suv resurslarini boshqarishda mavjud muammolarning saqlanib qolishi, preventiv choralar yetarlicha amalga oshirilmasligi natijasida yuzaga keladigan tizimli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlar tahlil qilinadi. Jumladan, kelajakda yo'qotilishi mumkin bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YaIM), iqtisodiy zararlar, boy berilgan yalpi milliy mahsulot hajmi kabi ko'rsatkichlar prognoz qilinadi.

2. Samarali va tizimli yondashuv asosidagi barqaror rivojlanish ssenariysi.

Bu yondashuvda suvdan foydalanish bo'yicha ilg'or ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va texnologiyalarga investitsiya kiritish, suv resurslariga investitsiya jozibadorligini oshirish, boshqaruvni raqamlashtirish, suv resurslari monitoringini takomillashtirish hamda butun Markaziy Osiyo miqyosida shaffoflikni ta'minlash orqali barqaror rivojlanish prognozi shakllantiriladi.

Bunday prognozlash uslublari kelgusida yuzaga keladigan ehtimoliy zararlarni oldindan ko'rish, ularni kamaytirish choralari bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish va investitsiyalarni yanada maqsadli va dolzarb yo'naltirishga asos yaratadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarini o'lchash tizimining takomillashtirilishi, ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash va boshqaruvni to'liq raqamlashtirish orqali mamlakatlar o'rtasida tezkor preventiv choralarni birgalikda ko'rish, suv tanqisligidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni minimallashtirish imkoniyati sezilarli darajada oshadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda suvdan samarali foydalanish salohiyati, eng avvalo, qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish va suv resurslarini boshqarishda raqamlashtirish tizimlarini joriy etishga bog'liqdir. Buning uchun barcha daryo, soy va kanallardagi suv miqdorini aniq o'lchash, suv kadastrlarini to'liq shakllantirish, nasoslar va suv taqsimoti tizimlarini raqamlashtirish zarur.

Suvdan foydalanishni makroiqtisodiy miqyosda tahlil qilishda YaIM SS va SS1YaIM kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Afg'oniston, O'zbekiston va Turkmaniston Amudaryo suvidan samarali foydalanish bo'yicha nufuzli xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etgan holda yagona regional strategiyani ishlab chiqishlari zarur. Shu bilan birga, suv tejamkor investitsiya loyihalarini ekologik loyiha sifatida baholash ham dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuv investitsion loyihalarning jozibadorligini oshiradi va xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

So'nggi yillarda Orol dengizining qurigan hududlarida "yashil" maydonlar tashkil etilishi, sho'rlangan yerlar va suv tanqisligi sharoitida ekologik muvozanatni tiklash ishlari ijobiy natijalar bermoqda. Hayvonot va nobudot olami asta-sekin jonlanmoqda va rivojlanmoqda. Ushbu hududlarda sho'rga va suv tanqisligiga chidamli ekinlarni ekish zarur. Xususan, topinambur o'simligini ekish orqali hayvonot dunyosining oziqa bazasini yaxshilash va tuproq sho'rini kamaytirish mumkin. Namangan viloyatining sho'rsuvli yerlarida hamda Mo'ynoq tumanida o'tkazilgan sinovlar ijobiy natijalar bergan. Topinambur maydonlarining kengayishi havoning tozaligiga, hayvonot dunyosining ko'payishiga va daromad manbalarining kengayishiga xizmat qiladi [9, 10].

"Qo'shtepa" kanalining qurilishi Quyi Amudaryo hududida xavotirlar va ekologik tahdidlarni oshirmoqda. Suv resurslaridan foydalanish borasida Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirokida yangi regional kelishuvlarni ishlab chiqish, xalqaro ekspertlarni jalb etish, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, suv boshqaruvining shaffof va raqamlashtirilgan tizimini yaratish va ushbu resurslardan birgalikda foydalanish zarur.

Bu borada O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, hamkorlik loyihalari tarkibiga suvdan foydalanish bo'yicha qo'shma tashabbuslarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, O'zbekistonda to'plangan ilg'or tajriba – tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, diskretli sug'orish tizimlari, davlat budjetidan subsidiya ajratish orqali berilayotgan rag'batlar va "know-how" texnologiyalarini Afg'onistonga transfer qilish ikki tomonlama manfaat keltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган чора- тадбирлар тўғрисида" Қарори. www//LexUz. 2024. 10. 30
2. 2024_11_26_CFTNI_Afghanistans_qoshtepa_canal_and_water_security.pdf
3. Баходир Мирзаев. Сув сасаласи-барқарорлик масаласи. Халқ сўзи. 2024 йил. 15 ноябрь www.xs.uz
4. World Bank. Water Infrastructure in Central Asia: Promoting Sustainable Financing and Private Capital Participation. https://www.worldbank
5. Ш. Хамраев. Ўзбекистонда Сув Кодекси қабул қилиниши. 2025 йил 17 март Uzreport TV. 17.03.2025.

6. Andrew C. Kuchins Elvira Aidarkhanova Najibullah Sadid Zekria Barakzai/ Afghanistan's Qoshtepa Canal and Water Security in Central Asia. November 2024 Center for the National Interest.
7. М. Қосимов "Топинамбурнинг "Файз барака", "Мўжиза"навлари агро ва биотехнологиясини яратиш, уни сақлаш ва чиқитсиз қайта ишлаш асосида юқори самарали, импорт ўрнини босувчи, ҳамда экспортбоп, экологик соф маҳсулотлар ишлаб чиқариш". Илмий-амалий лойиҳа № А9-ФҚ-1-15580. ТДИУ. 2015.
8. Кристина Тодерич, Ирина Бекмирзаева. Возделывание топинамбура (Helianthus tuberosus L) на засоленных почвах Аральского Бассейна. Сборник научных статьей// Ўзбекистонда яратилган топинамбур индустриясининг салоҳияти: корпоратив инновацион ҳамкорлик натижалари ва истиқболлари// Тошкент.ТДИУ
9. Перспективы развития цифровых технологий в водной отрасли. Директор департамента цифровизации Министерства водных ресурсов и иррригации РК. Мейргуль Куандыкова - YouTube https://youtu.be/sgG72yEciBs?t=43
10. М. Саидов ва Зиёдулла Жумаев. Ирригация ва сув хўжаликлари муаммолари институти катта илмий ходимлари. Маданият ва маърифат ТВ. 19.03. 2025
11. Makhamatjon Kasimov. Changing society: Environment and Human Insecurity in Central Asia" Division of Environmental &Regional Environmental Studies (IRES).Graduate School of Environmental Studies.Tohoku university. 2008 c.65
12. UNDP. Area based development "ISTIQBOL" (2006-2007). Makhamatjon Kasimov/ business adviser. Reports of the project.
13. https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/25/water/
14. https://ya.ru/search/?text=ozbekiston+24+yangiliklari&lr=10335&clid=2422917&search_source=yaru_desktop_common&search_domain=yaru&src=suggest_Pers.
15. http://www.icwcaral.uz/reports_amudarya_ru.htm

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz